

O'QITUVCHI OILAVIY MUNOSABATLARINING GENDER XUSUSIYATLARI SHAKLLARI

Sadikova Feruza Taibovna

“Oila va gender “ ilmiy – tadqiqot instituti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15754527>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qituvchilarning oilaviy munosabatlaridagi gender xususiyatlari, ularning shakllanishi, ta'sir omillari va jamiyatdagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Gender tengligi masalasi o'qituvchilik kasbining oila bilan uyg'unligida qanday namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: gender, o'qituvchi, oila, ijtimoiy rol, munosabat, tenglik, tarbiya.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida jamiyatda gender masalalari dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Ayniqsa, pedagogik faoliyat bilan band bo'lgan o'qituvchilarning oilaviy munosabatlarida genderga oid jihatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'qituvchi – bu nafaqat kasbiy shaxs, balki oila a'zosi sifatida ham ijtimoiy rol o'ynaydi. Shu sababli, uning oila doirasidagi vazifalari, qarashlari va genderga oid pozitsiyasi ijtimoiy hayotda muhim o'rin egallaydi.

Asosiy qism

I. Gender tushunchasining mohiyati va o'qituvchilik faoliyatidagi roli

Gender – bu biologik emas, balki ijtimoiy jihatdan shakllangan jinsga oid xatti-harakatlar, rollar va me'yorlar tizimidir. Gender tushunchasi keng qamrovli, tadqiqot ko'lamini ko'p qirrali tushunchalardan biri hisoblanadi. Gender tushunchasining o'qituvchi faoliyatida roli bu kasbiy faoliyatida erkak va ayol sifatida egallagan o'rni, jamiyatda ularga nisbatan mavjud bo'lgan stereotiplar, kutishlar va farqlarni anglatadi. Bu masala ta'lim sifatini, o'qituvchilarning ijtimoiy rivojlanishi va ta'lim muhitining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilik kasbi an'anaviy ravishda “ayollar kasbi” deb qaralgan bo'lsa-da, bugungi kunda erkak va ayol o'qituvchilarning o'zaro teng va muvozanatli faoliyati ta'lim sifatini belgilovchi omillardan biridir. O'qituvchi ish faoliyatida gender rolining quyidagi jihatlari mavjud:

1. Gender stereotiplari:

-odatda ayol o'qituvchilar sabrli, mehribon bo'lib, tarbiyaviy yondoshuvlarga bog'liq faoliyat bilan shug'ullanishadi;

-erkak o'qituvchilar esa, qat'iyat va intizom bilan boshqaruvchilik faoliyatida ko'proq ko'rinadi;

Bu stereotiplar ba'zida o'qituvchining kasbiy erkinligi hamda o'qituvchilarga bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy yondoshuvlarga ta'sir ko'rsatadi.

2. Fanlar va gender taqsimoti :

-boshlang'ich sinf o'qituvchilari deyarli barcha davlatlarda asosan ayol o'qituvchilarni tashkil etadi;

-tabiiy va aniq fan o'qituvchilari ko'proq erkak o'qituvchilardan iborat;

-ijtimoiy-gumanitar fan o'qituvchilarning ham asosiy qismini ayollar tashkil etadi;

Bu holat kasbiy yo'nalishlarga bo'lgan gender asosidagi yondoshuvdan dalolat beradi.

3. Ta'limdagi yetakchilik va lavozimlar:

-maktab rahbariyati lavozimlarida erkaklar ko'proq uchraydi;

-ayol o'qituvchilarning asosiy qismi o'rta bo'g'in tizimida ya'ni sinf rahbari, uslub

birlashma rahbari kabi vazifalarda faoliyat yuritadi;

Bu holat gender tengligining yetarli darajada emasligini ko'rsatadi.

4.O'quvchilarga ta'siri:

-o'quvchilar ayol va erkak o'qituvchilardan turlicha ijtimoiy-psixologik ta'sir ostida bo'ladilar;

-ayol o'qituvchilar hissiy dalda berish,mehr ko'rsatishi bilan o'quvchilarning emotsional rivojiga ijobiy ta'sir qiladi;

-erkak o'qituvchilar esa ijtimoiy javobgarlik va intizomni kuchaytirishi mumkin;

5.Gender tengligiga erishish yo'llari:

-o'qituvchilar uchun gender tengligi haqida treninglar qilish;

-kasbiy tanlovlarda genderga asoslangan stereotiplarni kamaytirish;

-Ma'muriyat tizimida ayol va erkak o'qituvchilar o'rtasidagi muvozanatni barqarorlashtirish;

II. O'qituvchining oilaviy munosabatlarida gender rollari

Oila miqyosida o'qituvchi erkaklar ko'proq mas'uliyatli, boshqaruvchi va iqtisodiy ta'minot rovida namoyon bo'lsa, ayol o'qituvchilar esa ko'proq mehribonlik, tarbiya, uy ishlarida faol ko'rinadi. Bu gender rollar ayrim hollarda o'zaro tushunmovchilikka, rollar ziddiyatiga olib kelishi mumkin.

- Gender rollarining shakllari:
- An'anaviy gender roli: Ayol o'qituvchi uy ishlari va farzand tarbiyasi bilan shug'ullansa, erkak o'qituvchi asosiy daromad topuvchi sifatida ko'rinadi.
- Teng huquqli gender roli: Er-xotin pedagoglar oilada qarorlarni birgalikda qabul qiladilar, uy ishlarini teng taqsimlaydilar.
- Zamonaviy gender roli: Kasbiy faoliyat va oilaviy majburiyatlar muvozanatli tarzda boshqariladi, erkaklar ham farzand tarbiyasida faol ishtirok etadi.

III. Gender tengligining pedagogik faoliyatga va oilaga ta'siri

Gender tengligi oilada barqarorlikni ta'minlaydi, bolalarning sog'lom ruhiy rivojlanishiga xizmat qiladi. O'qituvchilar orasida gender tengligini saqlagan oila namunalari o'quvchilarga ijobiy ijtimoiy model sifatida xizmat qiladi. Bu esa kelajak avlodning gender stereotiplaridan xoli bo'lib voyaga yetishiga zamin yaratadi.

Xulosa

O'qituvchining oilaviy munosabatlarida gender xususiyatlari jamiyatning umumiy ijtimoiy-tarbiyaviy ko'rinishidir. Bu munosabatlar faqat shaxsiy masala bo'lib qolmay, balki ta'lim tizimi, oila institutining barqarorligi va jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Gender tengligi o'qituvchi oilasida faqat adolat emas, balki rivojlanish mezonini sifatida qaralishi lozim.

REFERENCES

1. Bekmurodova, N. "Gender psixologiyasi." – Toshkent: TDPU, 2021.
2. Karimov, A. "Oila sotsiologiyasi." – Samarqand, 2020.
3. UNESCO Gender Equality Guidelines, 2022.
4. Sharipova, M. "O'qituvchi shaxsining ijtimoiy roli." – Andijon, 2019.